



EKOLOGIYA SOHASIDA UMUMIY VAKOLATLI DAVLAT BOSHQARUVI ORGANLARI TIZIMI VA VAKOLATLARI

Abralov Umidjon Alisher o'g'li

*Toshkent davlat yuridik universiteti magistranti 70420111 – Tabiiy resurslar
huquqi mutaxassisligi*

Annotatsiya: Mazkur maqolada O'zbekiston Respublikasida ekologiya sohasida umumiy vakolatli davlat boshqaruvi organlarining tizimi va vakolatlari tizimli ravishda tahlil etiladi. Jumladan, Oliy Majlis palatalarining ekologik siyosatni shakllantirish va nazorat qilishdagi roli, Vazirlar Mahkamasining normativ-huquqiy hujjatlar ishlab chiqish va ijrosini ta'minlashdagi funksiyalari, shuningdek, mahalliy davlat boshqaruv organlarining atrof-muhitni muhofaza qilish sohasidagi vakolatlari yoritilgan. Maqolada ekologik boshqaruvning institutsional asoslari va vakolatlar taqsimoti, shuningdek, tizim samaradorligini oshirish bo'yicha takliflar ham ilgari suriladi.

Kalit so'zlar: Ekologik boshqaruv, umumiy vakolatli organlar, Oliy Majlis, Qonunchilik palatasi, Senat, Vazirlar Mahkamasi, mahalliy davlat hokimiyati, ekologik siyosat, vakolatlar taqsimoti, davlat ekologik nazorati, davlat siyosati, muvofiqlashtiruvchi funksiyalar, ekologik monitoring, ekologik qonunchilik, xalqaro tajriba, mahalliy ekologik dasturlar, ekotizimni muhofaza qilish

Abstract: This article provides a comprehensive analysis of the system and functions of general authorized state bodies in the field of environmental governance in the Republic of Uzbekistan. It highlights the role of the chambers of the Oliy Majlis in shaping and supervising environmental policy, the responsibilities of the Cabinet of Ministers in developing and enforcing legal frameworks, and the powers of local public authorities in environmental protection. The institutional structure, distribution of competencies, and proposals for improving the effectiveness of environmental governance are also discussed.

Key words: Environmental governance, general authorized bodies, Oliy Majlis, Legislative Chamber, Senate, Cabinet of Ministers, local public administration, environmental policy, distribution of powers, state environmental control, state policy, coordination functions, environmental monitoring, environmental legislation, international experience, local environmental programs, ecosystem protection

Аннотация: В статье представлен всесторонний анализ системы и полномочий государственных органов общего уполномочивания в сфере экологического управления в Республике Узбекистан. Особое внимание уделяется роли палат Олий Мажлиса в формировании и контроле экологической политики, функциям Кабинета Министров по разработке и реализации нормативно-правовых актов, а также полномочиям органов местного государственного управления в сфере охраны окружающей среды. В статье также



рассматриваются институциональные основы, распределение компетенций и предлагаются меры по повышению эффективности экологического управления.

Ключевые слова: *Экологическое управление, органы общего уполномочивания, Олий Мажлис, Законодательная палата, Сенат, Кабинет Министров, органы местного государственного управления, экологическая политика, распределение полномочий, государственный экологический контроль, государственная политика, координационные функции, экологический мониторинг, экологическое законодательство, международный опыт, местные экологические программы, охрана экосистем*

KIRISH

Ekologik xavfsizlik va atrof-muhitni muhofaza qilish masalalari bugungi kunda global darajadagi dolzarb muammolardan biri sifatida davlat siyosatining ustuvor yo'nalishiga aylanmoqda. Iqlim o'zgarishi, suv va havo ifloslanishi, chiqindilarni boshqarish, biologik xilma-xillikning kamayishi kabi ekologik tahdidlar nafaqat inson salomatligiga, balki mamlakatlarning barqaror rivojlanishiga ham bevosita ta'sir ko'rsatmoqda. Shunday sharoitda, ekologik muammolarga qarshi samarali choralar ko'rish, ularni davlat miqyosida boshqarish va muvofiqlashtirish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasi ekologik siyosatni yuritishda tizimli va huquqiy asoslangan yondashuvni tanlagan bo'lib, bu borada bir qator islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, ekologiya sohasida faoliyat yurituvchi umumiy vakolatli davlat boshqaruvi organlari tizimi shakllantirilib, ularning vakolatlari aniq belgilab qo'yilgan. Oliy Majlis palatalari — Qonunchilik palatasi va Senat tomonidan ekologik qonunchilikni ishlab chiqish va nazorat qilish vazifalari bajarilmoqda. Vazirlar Mahkamasi esa ekologik sohada qarorlar qabul qilish, strategik dasturlarni ishlab chiqish va ularning ijrosini ta'minlash bo'yicha markaziy boshqaruv organi sifatida faoliyat yuritmoqda. Shuningdek, mahalliy davlat hokimiyati organlari tomonidan joylardagi ekologik holatni monitoring qilish, aholi bilan ishlash va ekologik dasturlarni amalga oshirish bo'yicha chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasida ekologik boshqaruvni amalga oshiruvchi umumiy vakolatli davlat organlarining tizimi, ularning vakolatlari, funksional vazifalari va o'zaro hamkorligi huquqiy-nazariy jihatdan tahlil qilinadi. Shuningdek, xalqaro tajriba asosida milliy tizimni takomillashtirish bo'yicha taklif va tavsiyalar ham ilgari suriladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METADOLOGIYA

Ekologiya sohasida davlat boshqaruvini shakllantirish orqali davlat o'zining ekologik vakolatini va ekologik siyosatini amalga oshiradi. Ekologiya sohasida davlat boshqaruvi orqali davlat tabiiy resurslarning mulkdori sifatida tabiiy resurslardan foydalanishni tashkil etish maqsadida ularni tassarruf etish huquqini amalga oshirishadi. Ekologiya sohasida davlat boshqaruvi organlarining ijro etish va



farmoyish berish faoliyati atrof muhit va tabiiy resurslar to'g'risidagi qonun hujjatlarining bajarilishini ta'minlashga qaratilgan [1].

Turli sohadagi olimlar ekologik xavfsizlik tushunchasini turlicha ta'riflaydilar. Masalan, N.F. Reymers ekologik xavfsizlikka 2 xil yondashgan: 1) tabiat obyektlari, alohida inson uchun zarar olib kelmaydigan faoliyatlar; 2) Yer shari va turli mintaqalarda insoniyatning tabiiy-texnogen tayyorgarligi darajasida eko muvozanatni ta'minlovchi faoliyatlardir.

Mazkur ta'rif ham ekologiyaga, ham boshqaruvga oid iboralar bilan ifodalangan. Binobarin, ekologik boshqaruv masalasi "barqaror rivojlanish" uchun eng katta va global masala ekanligini his qilgan holda atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish va undan foydalanish qoidalarini belgilash lozim [2].

Shu o'rinda amerikalik huquqshunoslar mamlakat Konstitutsiyasini ekologiya huquqi normalari shakllanadigan huquqiy tizim uchun asos bo'lib xizmat qiluvchi "bilvosita manba" sifatida ta'riflaydilar. AQShning ekologik qonunchilikni ishlab chiqishda inobatga olinishi lozim bo'lgan barcha umumiy konstitutsiyaviy normalarini uch yirik guruhga ajratishimiz mumkin: 1) atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish sohasida huquqiy tartibga solishni amalga oshirish bo'yicha Kongress vakolatlarini belgilovchi normalar; 2) ushbu vakolatni chegaralovchi normalar; 3) atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish sohasini huquqiy tartibga solishga ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan fuqarolarning huquqlariga oid normalar. AQSh ekologik qonunchiligida asosiy o'rinni konstitutsiyaviy qoidalarni sud sharhi egallaydi hamda u ekologik munosabatlarni har qanday sohada qo'llashni nazarda tutadi.

AQSh Konstitutsiyasidan farqli ravishda mamlakatimiz Asosiy qonunida ijtimoiy-siyosiy tuzdagi normalar bilan bir qatorda atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan foydalanishni tartibga soluvchi maxsus ekologik me'yorlar ham mavjud. Chunonchi, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining maxsus ekologik normalari tizimi quyidagicha: fuqarolarning ekologik burchi (49-modda); mulkdan foydalanishning ekologik talablari (54-modda); davlat ekologik siyosatini amalga oshirish prinsiplarini belgilab beruvchi normalar (79-modda); mahalliy hokimiyat organlarining ekologiya sohasidagi vakolatlari (123-modda).

MUHOKAMA

Ekologiya inson hayoti va milliy xavfsizlikning asosiy shartlaridan biri bo'lib, uning muhofazasi va barqaror rivojlanishi davlat siyosatining muhim yo'nalishidir. O'zbekiston Respublikasi Senati – mamlakatdagi yuqori palata bo'lib, ekologik muammolarni hal etishda muhim rol o'ynaydi. Ushbu maqolaning muhokama qismida Senatning ekologiya sohasidagi faoliyat yo'nalishlari, qabul qilinayotgan qonunlar, nazorat va monitoring faoliyatlari, shuningdek, xalqaro hamkorlikdagi roli muhokama qilinadi.

Misol sifatida aytishimiz mumkinki, 2024-yil 10-iyul kuni Senatorlar o'z ishini yangi tahrirdagi "Elektr energetikasi to'g'risida"gi Qonunning muhokamasi bo'lib o'tdi.



Yangi tahrirdagi “Elektr energetikasi to’g’risida”gi Qonun bilan iste’molchilarning narxlar, ishonchli elektr ta’minoti va xizmatlar ko’rsatish sifati bo’yicha manfaatlarini himoya qilish, elektr energiyasi jiddiy to’siqlarsiz sotiladigan likvidli bozorni shakllantirish maqsadida samarali, shaffof, tabaqalashmagan va raqobatdosh elektr energiya bozorining yuzaga kelishi va rivojlanishiga ko’maklashish nazarda tutilmoqda.

Qonunda raqobat muhitini rivojlantirish, xususiyl sarmoyalarni jalb qilish va joriyl etishni rag’batlantiruvchi elektr energetika tarmog’ining samarali faoliyat yuritishi uchun tuzilma va umumiy qoidalar belgilandi.

Shundan so’ng “Energiyani tejash, undan oqilona foydalanish va energiya samaradorligini oshirish to’g’risida”gi Qonun ko’rib chiqildi.

Hozirda mamlakatimizda qayta tiklanuvchi energiya manbalarining elektr energiyasini ishlab chiqarish umumiy hajmidagi ulushi qariyb 10 foizni tashkil etmoqda. Bu borada O’zbekiston 2030-yilga qadar qayta tiklanuvchi energiya manbalari quvvatini 27 gigavattga yetkazib, elektr energiyasi ishlab chiqarish umumiy hajmini kamida 40 foizga olib chiqishni maqsad qilgan.

Bu har yili 25 mlrd kub metr tabiiyl gazni tejash, atmosferaga zararli tashlanmalarni 34 mln tonnaga qisqartirish imkonini beradi [3].

O’zbekiston Respublikasi Senatining ekologiya sohasidagi faoliyati qonunlar qabul qilish, nazorat, xalqaro hamkorlik, jamoatchilik bilan ishlash va innovatsion yondashuvlarni rivojlantirish kabi muhim yo’nalishlarni o’z ichiga oladi. Bu faoliyat mamlakatda ekologik barqarorlikni ta’minlash va muhim ekologik muammolarni hal etishda muhim ahamiyat kasb etadi. Kelajakda bu yo’nalishlarni yanada kengaytirish va samaradorligini oshirish uchun ilg’or xalqaro tajribalar va texnologiyalarni joriyl etish zarur.

NATIJALAR

O’zbekiston Respublikasi Qonunchilik palatasi ekologik qonunchilikni ishlab chiqish, ijrosini ta’minlash va xalqaro standartlarga muvofiqligini ta’minlash borasida keng ko’lamli ishlarni amalga oshirmoqda. Atrof-muhitni muhofaza qilish, ekologik xavfsizlikni ta’minlash, yashil iqtisodiyotni joriyl etish kabi yo’nalishlarda qabul qilinayotgan qonunlar nafaqat hozirgi, balki kelajak avlodlar manfaatiga xizmat qiladi. Kelgusida mazkur faoliyatni yanada takomillashtirish ekologik barqarorlikka erishishning muhim omillaridan biridir.

Atrof-muhitni muhofaza qilish va ekologik xavfsizlikni ta’minlash O’zbekistonning barqaror rivojlanish strategiyasida ustuvor yo’nalishlardan biri hisoblanadi. Bu borada davlat hokimiyati va boshqaruv organlari, ayniqsa, Oliy Majlisning Qonunchilik palatasi hamda Senati muhim o’rin egallaydi. Har ikki palata ekologik qonunchilikni ishlab chiqish, ijrosini nazorat qilish, xalqaro ekologik majburiyatlarni bajarish va jamiyatda ekologik madaniyatni yuksaltirish kabi masalalarda faol ishtirok etmoqda.

O’zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati:



Hududlar kesimida ekologik qonunlarning amalda qanday tatbiq etilayotganini nazorat qiladi.

Mahalliy Kengashlar va joylardagi ekologik vaziyatni hisobga olib, qonunchilik tashabbuslariga hissa qo'shadi [4].

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi:

Vazirliklar, xususan Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi hisobotlarini eshitadi.

Parlament eshituvlari orqali yirik ekologik loyihalarning holatini o'rganadi [5].

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi va Senati ekologik qonunchilikni takomillashtirish, ekologik xavfsizlikni ta'minlash, hududiy va xalqaro ekologik muammolarni hal qilish, shuningdek, aholining ekologik ongini va madaniyatini yuksaltirishda faol ishtirok etmoqda. Har ikki palataning o'zaro muvofiqlashtirilgan sa'y-harakatlari orqali mamlakat barqaror ekologik rivojlanish sari dadil qadamlar tashlamoqda. Ushbu faoliyatlarning izchil davom ettirilishi, parlament nazorati va qonunchilik tashabbuslari orqali ekologik xavfsizlikning huquqiy asoslari yanada mustahkamlanadi va O'zbekistonning xalqaro majburiyatlarini samarali amalga oshirishiga xizmat qiladi.

Atrof-muhitni muhofaza qilish, ekologik xavfsizlikni ta'minlash va barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishda ijro hokimiyati organlarining, xususan, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining roli beqiyosdir. Hukumat ekologik siyosatni shakllantiradi, ekologik qonunlar ijrosini ta'minlaydi va xalqaro ekologik tashabbuslarni amalga oshirishda markaziy muvofiqlashtiruvchi organ sifatida faoliyat yuritadi.

Vazirlar Mahkamasi ekologik sohada yagona davlat siyosatini amalga oshirish orqali ekologik boshqaruvda tizimlilik va izchillikni ta'minlaydi. Bu vakolat davlat ekologik dasturlarini ishlab chiqish va tasdiqlash, vazirliklararo muvofiqlashtirishni amalga oshirish, huquqiy-me'yoriy hujjatlarni qabul qilish orqali ro'yobga chiqadi [6].

O'zbekiston Respublikasida ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va ularni qayta tiklash sohasidagi davlat boshqaruvi qonunlar va boshqa normativ-huquqiy hujjatlarga muvofiq O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, O'zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi, mahalliy davlat hokimiyati organlari tomonidan amalga oshiriladi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi ekologik siyosatni shakllantirish va amalga oshirishda yetakchi institut hisoblanadi. Uning ekologik qonunlar ijrosini ta'minlash, xalqaro majburiyatlarni bajarish va aholining hayot sifatini yaxshilash yo'lidagi sa'y-harakatlari mamlakatda ekologik xavfsizlikning institutsional asoslarini mustahkamlashga xizmat qilmoqda. Kelajakda ushbu vakolatlarning hududiy va ijtimoiy ehtiyojlarga yanada moslashtirilishi, shubhasiz, milliy ekologik strategiyaning muvaffaqiyatli amalga oshirishiga olib keladi.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. H.I.To'xtashev Ekologiya huquqi. O'quv qo'llanma. H.I.To'xtashev. —T.: TDYU nashriyoti. "Lesson Press" nashriyoti, 2022-y. — 372 b.
2. Ekologiya huquqi. H.I.To'xtashev, O'quv qo'llanma. T.: TDYU nashriyoti. Toshkent - 2024-yil. 8-bet.
3. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining rasmiy sayti. <https://senat.uz/plenary-sessions/post-2383>
4. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining rasmiy sayti. <https://senat.uz/>
5. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi. <https://parliament.gov.uz/>
6. O'zbekiston Respublikasining "O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi to'g'risida"gi 25.10.2024 yildagi O'RQ-982-sonli Qonuni. 15-modda. Vazirlar Mahkamasining ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasidagi vakolatlari